

O'Z KASBINING PIRI

*O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali
Filologiya va tillarni o'qitish :ingliz tili yo'nalishi
Ikurs talabasi*

Ergasheva Sarvinoz Mansur qizi

73 yoshga kirgan Ergash bobo Qo'shboqov xotiralaridan : -" Otam Qo'shboq Xaqnazarov 1920 yilda Forish tumani Garasha qishlog'ida tavallud topgan bo'lib , 1942 yilda ko'pchilik qatori vatan himoyasiga o'tlanadi. Otam oilada yolg'iz yigit bo'lgan. Urush qurbonsiz bo'lmagani kabi qishloqdan ketgan quroldosh do'stlarining ko'pchiligi urushda qahramonlarcha halok bo'lishadi .Otam 1943 yil fevral oyida Volgograd shahrini ozod qilish chog'ida og'ir yarador bo'lib qoladi. Nemis fashistlarining snariyadi parchalari chap ko'kragiga kirib,og'ir shikast yetkazadi . Bundan keyin esa ularni dala gospitalidan otga qo'shilgan chana bilan front ortidagi gospitalga jo'natilishiga to'g'ri keladi.Gospitalga olib kelinganicha esa to'rt ,besh kun vaqt o'tadi , (1943 yil qiroven qishida) ikkala oyog'ini bo'lsa sovuq olib qo'yadi.Birinchi yordam oyog'ini ikkalasini ham kesib tashlashga majbur bo'ladi.Keyin ko'kragidagi snaryad parchalarini olib tashlashadi .Olti oy deganda qo'l'tiqtayoqda uyga jo'natiladi. O'sha 1943 yil fevral oyida yarador holida 2 guruh nogironi bo'ladi.1947 yil onamiz bilan birga yigirma ikki yilgina umr kechiradi.Onam 1969 yilda 42 yoshida vafot etadi.Otam bilan onam to'rt qiz va 3 o'g'ilni tarbiyalab voyaga yetkizadi. Men oilaning to'ng'ich o'g'liman .Mendan katta bir nafar opam , mendan keyin ikki nafar ukam va uchta singlim bor. Hammamizning o'z oilamiz farzandlarimiz ,nevara ,evaralarimiz bor.Otam 1995 yil 76 yoshida vafot etdi. Oxiratlari obod bo'lsin.

Men 1951 yil 16 mart kuni Samarqand viloyati Payariq tumanida tavallud topganman.1968 yilda o'rta ta'lim maktabini tamomlaganman. 1973 yilda Toshkent Davlat univeristeti Jurnalistika fakultetida taxsil olganman.Payariq tuman gazetasida ("Payariq ovozi") faoliyat ko'rsatib,40 yil matbuotda ishladim va ko'plab shogirdlar tarbiyalab yetishtirdim, gazetada avvalo oddiy musaxixlikdan bo'lim boshlig'i, ma'sul kotib , muharrir o'rinbosari ,mukarir vazifalarida faoliyat ko'rsatdim.Turmush o'rtog'im Usmonova Norxoloy bilan 53 yildan buyon birga yashab kelmoqdamiz. Uch qiz va ikki og'il farzandlarni tarbiyalab voyaga yetkazdik va hozirda nevara ,evaralarni tarbiyalab kelmoqdamiz. Shu kunlarga yetkazgan Ollohga shukronalar bo'lsin."Bobom ,Ergash Qo'shboqov, juda ko'p muddat ya'ni 40 yil davomida Samarqand viloyati Payariq tumanidagi "Payariq ovozi " gazetasida faoliyat yuritib keladi. Keyinchalik ayrim sabablarga ko'ra ishini to'xtatishga to'g'ri keladi. Ammo ular bu vaqt davomida juda ko'p ishlarni amalga oshiradilar , ko'plab shogirdlar tarbiyalaydilar va ular ham vaqti kelib yetuk muharrir bo'lishadi. Bobom har doim bizga doim yaxshi o'qishimiz kerakligini ,ular bizga ishonishlarini va kelajakda ko'plab yutuqlarga erishishimizga ishongan holda , o'qishimizga darkor bo'lgan hamma narsani ta'minlashga harakat qiladilar. Ular doim haqiqatni ,rost gapirishni afzal ko'radilar va bizni ham shu ruhda tarbiyalaganlar.

Bobom Ergash Qo'shboqov mingdan ziyod maqolalar yozib ,bosib chiqargandan tashqari , bosmaxonada harf teruvchi vazifasida ishlagan vaqtlari harf teruvchi sifatida ko'plab mashxur

yo'zuvchi va adiblarning asarlarini ,kitoblarini ham tahrirda bosib chiqarganlar . Bulardan biri Hammamizga yaxshi tanish bolgan ajoyib ,serqirra yo'zuvchilardan biri bo'lgan Bobomurod Daminov ham ular haqida maqola ham yo'zganlar va u inson qanchalik yaxshi va o'z kasbining piri ekanligini haqida fikr bildirganlar . Bobomurod Daminov hammamiz suygan va yaxshi tanigan Sharof Rashidovning yaqin do'stlari bo'lganlar. Bobomurod Daminov Bobom, Ergash Qo'shboqov, haqida shunday deb yo'zadi:

Azaldan kasb,hunar egalari hurmat-e'tiborda ilm ahli - olim, fozillar bilan teng turgan yurish turishlarda ,marakalarda katta-kichiklar oyoqqa turishib ,ularni g hurmat, izzatini joyiga qo'yishgan. Olim,fozil bo'lish bo'lish yoki hunarni egallash odatda yaratganning nazari tushgan kishilarga nasib etgan. Boshqacha aytganda ,aql-idroksiz ,tug'ma istedodsiz olim bo'lish ham,hunar egallash ham mumkin emas.

Biz shunday nodir hunar egalaridan biri ,Payariq tumani bosmaxonasining harf teruvchisi Ergash Qo'shboqov haqida so'z yuritmoqchimiz. Uni menga viloyat bosmaxonasi direktori Gulsara Nurmatova sirdan tanishtirgandi. So'z mening "Peshonada bori " nomli epik asarimning birinchi kitobi " Endi g'ingshima" romanimni bosmadan chiqarish haqida ketardi.Roman yo'zish yengil bo'lmagani kabi uni bosmaxonadan chiqarish ham katta ma'suliyatni takab etardi.

- Bilasizmi?, men sizga bir kishini maslahat berardim,-nogahonda deb qoldi Gulsara Nurmatova.- Uning nomi Ergash, Payariq tuman bosmaxonasida harf teruvchi bo'lib ishlaydi.Unga teng keladigani viloyatimizda yo'q. Romaningizni terishni shu kishiga bering. Men uni Samarqandga olib kelish uchun ko'p urindim . Uy berish, boshqa kerakli barcha moddiy sharoitlarni qilib berishga so'z berdim . Yo'q, tumanni qo'yib Samarqandga ,ishga kelishga ko'ndirolmadim."Zarafshon " nashriyoti rahbarlariga Gulsara Nurmatovaning taklifini aytdim.

-Ergash Qo'shboqov o'z kasbining piri , -nashriyotdagilar ham uni yaxshi bilisharkan.

-Uning qo'lidan chiqqan asar korrekturasini o'qib yurishning hech hojati yo'q.U shunaqangi harf teruvchi-ki, redaktor va mualliflarning xatosini ham tuzatadi.

Ha, Payariq tuman bosmaxonasiga kelmay turiboq harf teruvchi Ergash Qo'shboqov bilan qisman tanishib olgandim.

Bosmaxonaga kirib kelishim bilan uni surishtirdim. Oq -qizg'ish kulgan yuzlari ,o'rtacha gavdasiga mos tushgan kishi bilan qo'l siqishdik.Men ko'rishni istagan shuhratli harf teruvchi Ergash Qo'shboqov shu kishi ekan. Erkin suhbatimiz boshlanib ketdi . Biz go'yo ko'pdan tanish kishilar edik.

-Hali romaningiz kitob bo'lib chiqishga ulgurmay,biz uni allaqachonlar bolalarimiz bilan ocqib chiqdik,-suhbatimiz davomida deb qoldi u. Raxmat sizga, yaxshi yo'zibsiz.

Uning bu so'zlaridan " demak, bekorga o'n yil mehnat qilmagan ekanman-da ", deb ichdan quvondim.Axir, kitobxon yo'zuvchi uchun oliy hakam emasmi!

Ergash Qo'shboqov badiiy adabiyotni sevadigan ,uni nozik his qiladigan ,go'zallik tuyg'usi bilan kishi o'z o'z ishiga ham shunday yuksak estetik did bilan yondoshadi. Uning qo'lidan chiqqan badiiy yoki publisistik -siyosiy asarlarmi ,shunchaki, oddiy xizmat varaqasimi - hammasi did bilan yuksak saviyada ijro etiladi.

Ergash Qo'shboqov o'rta maktabni bitirishi bilan bosmaxonaga harf teruvchi bo'lib ishga o'tdi. Mana 28 yildan beri o'z ishiga mehr, sadoqat bilan mehnat qilyapdi, o'z kasbining atoqli ustasi, piri bo'lishdek sharaf shuning uchun ham unga nasib etgan.

Harf terish nozik, ziqna ish. Loqaydlikni, ma'suliyatsizlikni ko'rsatmaydi.. Shunday hunar uning qon-qoniga singib ketgan.

O'z ishining mohir ustasi bo'lmish shunday insonlar oldida hamisha bosh egib ta'zim qilishimiz kerak."

("Zarafshon" ro'znomasining 1996 yil 26 iyun sonidan olib berildi).

Yana ularni talantli muharrir ekanligini u kishini g yozgan maqolalaridan ham bilsak bo'ladi. Bobomning " Namunali mahalla", "El sevgan inson", "Taxsinga loyiq", " Xisob 56:56", "Ota- onalari bilan muloqot", "Sevimli muallima", "Barmoqlar sehri", "Ota izidan borib", "Boshlang'ich sinf muallimasi", "O'z kasbining piri", "Nortoji -gazchi 60 yoshda", "Yoshlarning mohir tarbiyachisi", "Qayta saylandi", "Yangi bino muborak", "Mazmunli umr sohibi" kabi minglab maqolalarini ko'rishimiz mumkin.

Otam, Ergash Qo'shboqov, hayotining ko'p qismini gazetada muharrirlik qilish bilan o'tkazdi, va bu vaqt davomida ko'p voqealarga guvoh bo'ldi, ko'p yozuvchilar bilan birga ishladilar, ularning asarlari maqolalarini gazetaga bosib chiqarganlar va bu sohada anchagina tajribaga ega bo'lganlar. Mana oradan ancha yillar o'tdi, lekin ular hali hamon o'sha vaqtdagidek adabiyotga bo'lgan qiziqishlari so'nmagan. Hozirda otam 73 yoshni qarshi olgan holda nafaqaga ham chiqqanlar. Ayni vaqtda esa ular oilalari bilan tinch totuv, baxtli hayot kechirib kelyaptilar.